


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

*60211200 – Rejissyorlik bakalavriat ta'lif yo'naliishing*

*MALAKA TALABLARI*

Toshkent-2024



## **ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti.

## **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil “25” 06 dagi 218-sonli buyrug‘i bilan.

## **JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilar takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r	bet
<b>1. Umumiy tavsifi.....</b>	<b>4</b>
1.1. Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari .....	5
1.2.4. Kasbiy vazifalari.....	5
<b>2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar .....</b>	<b>6</b>
<b>3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar .....</b>	<b>7</b>
<b>4. Fanlar katalogining tuzilishi .....</b>	<b>8</b>
<b>Bibliografik ma'lumotlar.....</b>	<b>11</b>
<b>Kelishuv varag'i.....</b>	<b>12</b>

## 1. Umumiy tavsifi

60211200 – Rejissyorlik ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha bakalavrilar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

### 1.1. Qo‘llanish sohasi

#### 1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi 60211200 – Rejissyorlik ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha bakalavrilar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### 1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta’lim yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun ma’sul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasasining boshqaruven xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor o‘qituvchilari;

ta’lim yo‘nalishining o‘quv reja va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim tashkilotini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abiturientlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### 1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

#### 1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

60211200 – Rejissyorlik ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatining sohalari San’at va madaniyat muassasalaridagi ijodiy jarayonni tashkil etish, faoliyat tizimini takomillashtirish, umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib qilish, san’at va madaniyat sohasida kompleks masalalarni yechish, san’at va madaniyat sohasini boshqarishga tegishli muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan vositalar, usullarni takomillashtirish bilan bog‘liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.**

Davlat va nodavlat tashkilot, teatrlar, teatrlashtirilgan tomoshalar, ommaviy bayram va spektakllar sahnalashtirish jarayonlari, estrada, sirk, kino, radio va televideniye, barcha maydon tomoshalari, konsert, shou dasturlari, madaniyat va san'at muassasalari ijodiy jarayonlarida rejissyor.

O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi huzuridagi muassasa va tashkilotlarda.

Davlat boshqaruv organlari, o'rta, o'rta maxsus kasbiy ta'llimning davlat va nodavlat muassasalarida ijodiy jarayonlar va kompleks masalalarni yechish.

*60211200 – Rejissyorlik* ta'llim yo'nalishlari bo'yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgan taqdirda, professional ta'llim muassasalarida ta'llimning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *ijodiy ishlab-chiqarish;*
- *axborot-tahliliy faoliyat;*

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

60211200 – Rejissyorlik ta'llim yo'nalishlari bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni samarali bajarishga qodir bo'lishi lozim:

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda madaniyat va san'atga oid mavzularda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda ishtirok etish;

internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

madaniyat va san'at sohasiga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rganish;

kasbiy faoliyat obyekti yo'nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihibalarini o'rganish;

ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda eksperimental tadqiqotlar o'tkazish, ularning natijalariga ishlov berish, baholash va boshqa kasbiy faoliyat turlarini bajarish;

ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etishda qatnashish;

ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish.

### **Tashkiliy-boshqaruv va ijodiy-ishlab chiqarish faoliyatida:**

madaniyat va san'at sohalaridagi ijodiy ishlab chiqarish birlashmalari, uyushmalari va assotsiatsiyalarida ishni boshqarish;

ijodiy ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va takomillashtirish;

mehnat, moddiy va axborot resurslarining ratsional boshqaruvini ta'minlashi, boshqaruvni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalariga mos tarzda takomillashtirish;

ijodiy ishlab chiqarish faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini rejalashtirish, tahlil qilish va hisobot tayyorlash;

san'atning zamonaviy janrlari va sohalarida ijodiy ijrochilikni amalga oshirish;

ommaviy bayram va tomoshalar, estrada shou dasturlari, xalq bayramlari, sayillar, estrada tomoshalari, konsertlar, festival va ko'rik tanlovlari rejissyorligini amalga oshirish;

ommaviy bayram va tomoshalar, estrada shou dasturlari, ommaviy tadbirlar, maydon tomoshalari sahnalashtiruvchi guruhlar rahbari vazifasini bajarish;

kinofilm, videofilm, teleradio spektakllari, maydon tomoshalari ijrochiligidini amalga oshirish;

o'z ustida muntazam ishslash, ijodini takomillashtirib borish

### **Axborot-tahliliy faoliyatida:**

San'at asarlari samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

## **2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.**

Davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

madaniyat va san'at sohasida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

axborot yig'ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish;

meyoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatda foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

estrada va ommaviy bayramlarni tashkil etish va sahnalashtirish;

tashkiliy (ijodiy va ishchi) guruh tuzish;

ommaviy bayram va teatrlashtirilgan tomoshalar dramaturgiyasini yaratish;

ommaviy bayram va tomoshalar dramaturgiyasida vatanparvarlik, tinchlik, mustaqillik, milliylik, baynalmuminanlik, do'stlik va insoniylik g'oyalarini tatbiq etish;

ommaviy bayram va tomoshalarda ijodiy guruhlar bilan ishlash va boshqarish;

fon va badiiy fon guruhlari rejissurasini amalga oshirish;

sport bayramlarini sahnalashtirish;

madaniyat va san'at muassasalarida rejissura va aktyorlik mahorati yo'nalishidagi to'garaklar faoliyatini tashkil etish;

teatrarda spektakllarni sahnalashtirish;

aktyor sifatida spektakl va tomoshalarda ishlash;

televideniyeda rejissyor sifatida ko'ngilochar ko'rsatuvalarini sahnalashtirish;

konsertlarni, shou-dasturlarini sahnalashtirish;

mahalliy aholi o'rtaida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni targ'ib etish kabi ko'nikmalariga ega bo'lish.

### **3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**


Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. Tanishuv amaliyoti;
2. O'quv amaliyoti;
3. Ishlab chiqarish amaliyoti;
4. Bitiruv oldi amaliyoti.

#### 4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>			
1.01	O'zYT 20014	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	FAL 20014	Falsafa	120	4	3
1.03	DIN 20014	Dinshunoslik	120	4	2
1.04	O'z RT 20014	O'zbek (rus) tili	120	4	1,2
1.05	XT 20014	Xorijiy tili	120	4	1,2
1.06	AT 20014	Axborot texnologiyalari	120	4	3,4
1.07	MST 20012	Madaniyat va san'at tarixi	60	2	7
<b>Rejissyorlik: kino va televide niye rejissyorligi ta'lif yo'nalishi bo'yicha majburiy fanlar</b>					
1.08	OPM 20014	Operatorlik mahorati	120	4	3,4
1.09	REJ 200162	Rejissura	1860	62	1,2,3,4,5, 6,7
1.10	AM 200124	Aktyorlik mahorati	720	24	1,2,3,4,5, .6
1.11	SN 200112	Sahna nutqi	360	12	1,2,3,4,5, .6
1.12	KT 20014	Kino va televide niye tarixi	120	4	1-2
1.13	KTB 200110	Kino va televide niyeda badiiy bezak	300	10	3,4,5,6,7
1.14	MON 200114	Montaj	420	14	1,2,3,4,5, .6,7
1.15	RIGBI 20018	Rejissyorning ijodiy guruhlar bilan ishlashi	240	8	4,5,6,7
1.16	SSM 20018	Ssenariynavislik mahorati	240	8	3,4,5,6
1.17	EATT 20014	Ekran asarlari tahlili va talqini	120	4	7
1.18	O'z A 20012	O'zbek adabiyoti	60	2	1
1.19	JA 20012	Jahon adabiyoti	60	2	2
1.20	SHJ 20014	Sahna harakati va jangi	120	4	3,4
1.21	MS 20014	Media studiya	120	4	5,6
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>420</b>	<b>14</b>	<b>5,6,7</b>
		<i>Tanlov fanlar</i>	420	14	5,6,7
<i>Kvalifikatsiya</i>		<i>Kino va televide niye rejissyori</i>			
<b>Rejissyorlik: dramatik teatr rejissyorligi ta'lif yo'nalishi bo'yicha majburiy fanlar</b>					
1.08	DRTR 200170	Dramatik teatr rejissyorligi	2100	70	1,2,3,4,5, .6,7
1.09	AM 200130	Aktyorlik mahorati	900	30	1,2,3,4,5, .6
1.10	SN 200118	Sahna nutqi	540	18	1,2,3,4,5, .6
1.11	RITPL 20014	Ritmika-plastika	60	2	1
1.12	RAS 20018	Raqs	240	8	1,2,3,4
1.13	SHJ 20018	Sahna harakati va jangi	240	8	3,4,5,6
1.14	RRBI20014	Rejissyorning rassom bilan ishlashi	120	4	5-6
1.15	TT 20014	Teatr farixi	120	4	5-6



1.16	GR 20014	Grim	120	4	7
1.17	O'z A 20014	O'zbek adabiyoti	120	4	1-2
1.18	JA 20014	Jahon adabiyoti	120	4	3-4
1.19	SYA 20012	Ssenografiya	120	4	7
1.20	DN 20016	Drama nazariyasi	180	6	5
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar.</b>	<b>300</b>	<b>10</b>	<b>4,6,7</b>
		<i>Tanlov fanlar</i>	300	10	4,6,7

*Kvalifikatsiya* *Dramatik teatr rejissyori*

**Rejissyorlik:estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligi ta'lif yo'nalishi bo'yicha majburiy fanlar**

1.08	EOTR 200170	Estrada va ommaviy tomoshalar rejissurasi	2100	70	1,2,3,4,5 .6,7
1.09	AM 200130	Aktyorlik mahorati	900	30	1,2,3,4,5 .6
1.10	SN 200118	Sahna nutqi	540	18	1,2,3,4,5 .6
1.11	RP 20012	Ritmika-plastika	60	2	1
1.12	RAS 200112	Raqs	360	12	1,2,3,4,5 .6
1.13	SHJ 20018	Sahna harakati va jangi	240	8	3,4,5,6
1.14	PANT 20014	Pantomima	120	4	6,7
1.15	TT 20014	Teatr tarixi	120	4	5,6
1.16	O'z A 20014	O'zbek adabiyoti	120	4	1,2
1.17	JA 20014	Jahon adabiyoti	120	4	3,4
1.18	SYA 20012	Ssenografiya	60	2	4
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar.</b>	<b>540</b>	<b>18</b>	<b>5,6,7</b>
		<i>Tanlov fanlar</i>	360	12	5,6,7

*Kvalifikatsiya* *Estrada va ommaviy tomoshalar rejissyori*

**Rejissyorlik: qo'g'irchoq teatr rejissyorligi ta'lif yo'nalishi bo'yicha majburiy fanlar**

1.08	QTR 200172	Qo'g'irchoq teatr rejissyorligi	2160	72	1,2,3,4,5 .6,7
1.09	AM 200130	Aktyorlik mahorati	900	30	1,2,3,4,5 .6
1.10	SN 200114	Sahna nutqi	420	14	1,2,3,4,5 .6,7
1.11	QYT 20018	Qo'g'irchoq yasash texnologiyasi	240	8	3,4,5,6
1.12	QBA 20018	Qo'g'irchoq boshqarish asoslari	240	8	3,4,5,6
1.13	RITPL 20014	Ritmika-plastika	120	4	1,2
1.14	RAS 20014	Raqs	120	4	1,2
1.15	SHJ 20014	Sahna harakati va jangi	120	4	3,4
1.16	PTMA 20014	Pantomima	120	4	5,6
1.17	TT 20014	Teatr tarixi	120	4	5,6
1.18	GR 20014	Grim	120	4	7
1.19	O'z A 20014	O'zbek adabiyoti	120	4	1,2
1.20	JA 20014	Jahon adabiyoti	120	4	3,4
1.21	SYA 20012	Ssenografiya	60	2	4
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar.</b>	<b>300</b>	<b>10</b>	<b>5,6,7</b>
		<i>Tanlov fanlar</i>	300	10	5,6,7



<i>Kvalifikatsiya</i>		<i>Qo'g'irchoq teatri rejissyori</i>			
<b>Rejissyorlik: musiqali teatr rejissyorligi ta'lif yo'nalishi bo'yicha majburiy fanlar</b>					
1.08	MTR 200170	Musiqali teatr rejissyorligi	2100	70	1,2,3,4,5, 6,7
1.09	AM 200130	Aktyorlik mahorati	900	30	1,2,3,4,5, 6
1.10	SN 200118	Sahna nutqi	540	18	1,2,3,4,5, 6
1.11	VOK 20012	Vokal	60	2	3,4
1.12	RITPL 20014	Ritmika-plastika	120	4	1,2
1.13	RAS 20018	Raqs	240	8	1,2,3,4
1.14	SHJ 20018	Sahna harakati va jangi	240	8	3,4,5,6
1.15	PMA 20014	Pantomima	120	4	6,7
1.16	TT 20014	Teatr tarixi	120	4	6,7
1.17	GR 20014	Grim	120	4	7
1.18	O'z A 20014	O'zbek adabiyoti	120	4	1,2
1.19	JA 20014	Jahon adabiyoti	120	4	3,4
1.20	SYA 20012	Ssenografiya	60	2	7
1.21	MN 20012	Musiqqa nazariyasi	60	2	5
1.22	DN 20012	Drama nazariyasi	60	2	7
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>300</b>	<b>10</b>	<b>5,6,7</b>
<i>Kvalifikatsiya</i>		<i>Musiqali teatri rejissyori</i>			
		<b>Jami:</b>	<b>6060</b>	<b>202</b>	
		<b>Malakaviy amaliyot</b>	900	30	(2,4,6,8)
		<b>Bitiruv malakaviy ishi</b>	240	8	8
		<b>Jami:</b>	<b>1140</b>	<b>38</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	



## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01


---

### Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy ta'lim dasturi, profil, o'qib-o'rghanish natijalari, o'quv sikli, kasb ta'limi, madaniyat, san'at, rejissyor, rejissura, sahnalashtirish, ijod, dramaturg, kompozitsiya, konflikt, g'oya, oliv maqsad, mavzu, syujet, prolog, kulminatsiya, final, janr, xatti-harakat, tempo-ritm, masal, matal, sahna nutqi, diksiya, artikulyatsiya, ovoz, nafas, aktyor, sahna, ekran, drama, teatr, bayram, tomosha, estrada, teatrlashtirish, shou dasturi, mizanssena, badiiy-ifodaviy bezak, musiqiy bezak, fon guruhi, badiiy fon guruhi, ijro, kechinma san'ati, taqlidiy san'at, grim, niqob, raqs, vokal, qo'shiq, ashula, tez aytish, sa'j, aktyorlik treningi, aruz vazni, g'azal, ruboiy, asar, tanqid, tahlil, axborot, roman, pyesa, tragediya, komediya, rol, obraz, salbiy, spektakl, adabiyot, repertuar, xarakter, xarakterlilik, konflikt, kompozitsiya, janr, ssenografiya, musiqa, folklor, adib, muallif, montaj, televideniye, radio, kino, monolog, dialog, etyud.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan oliy ta'lim muassasalari hamda  
kadrlar iste'molchilari

**ISHLAB CHIQILGAN:**



**KELISHILDI:**

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari  
markazi

Direktor M.R.Boltaboyev

2024-yil

M.O.

O'zbekiston Respublikasi  
Madaniyat vazirligi  
Ta'lim sohasini muvofiqlashtirish  
bo'limi

O.R.Salixov

Bo'lim boshlig'i

2024-yil " "

O'zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatri

Direktor Z.J.Hamrayeva

2024-yil

M.O.

O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi  
huzuridagi Kinematografiya agentligi

Direktor v.b Sh.T.Rizayev

2024-yil " "

M.O.

O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi

Rais o'rinnbosari M.A.Safarov

2024-yil " "

M.O.

O'zbekiston davlat drama teatri

Direktor S.S.Mansurov

2024-yil " "